

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi**  
**Raising birinchi o‘rinbosari M.M.Mirzayevning**  
**2022-yil iyun oyida bajarilgan ishlari**

**Budjet daromadlari ijrosini ta‘minlash va qo‘shimcha manbalarni jalb etish**  
**2022-yilning iyun** uchun belgilangan **12,3 trln.so‘m** prognoz ko‘rsatkichi **12,8 trln.so‘mga** (104,0%) bajarilib, byudjetga **496,5 mlrd.so‘m** qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8 trln.so‘mga** (115,9%) o‘tdi).

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha **2022-yil iyun** oyi uchun **2,9 trln.so‘m** belgilangan prognoz **3,0 trln.so‘mga** yoki 103,9 foizga bajarildi.

**Strategik rejalashtirish bo‘yicha**

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 28 apreldagi 249–son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Asl belgisi” Milliy axborot tizimida 6 ta dori vositalari va tibbiy buyumlarni, 5 ta suv va salqin ichimliklarni 5 ta maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazilib mahsulotlar katalogi moduliga sinov tariqasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlar (116 ta dori darmon, 33 ta suv sa salqin ichimlik, 762 ta maishiy texnika) joylashtirilishi ta‘minlandi.

**Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha**

2022-yilning iyun oyida jami 50 ta 17 872,9 mln. so‘mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, bugungi kun holatida kelib tushgan shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, 3 ta (6%) 9 228,5 mln. so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 47 ta (94%) 8 644,4 mln.so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.